

TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTIFELIDAGI MUOMMOLI
KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI
(ATB HAMKORBANK MISOLIDA)

Normatov Sirojiddin Ro'ziyevich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21715036>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlarning yuzaga kelish sabablari, ularning bank moliyaviy barqarorligi, likvidligi va rentabelligiga ta'siri hamda ularni kamaytirishning samarali yo'llari ATB "Hamkorbank" misolida tadqiq etilgan.

Tadqiqot davomida kredit risklarini boshqarish, qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini baholash, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kredit monitoringini kuchaytirish, muammoli qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish va erta ogohlantirish tizimlaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, kredit skoringini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida risklarni prognozlash, garov ta'minotini muntazam qayta baholash hamda muammoli aktivlar bilan ishlash mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari tijorat banklarida kredit portfeli sifatini oshirish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va bank faoliyatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: tijorat banki, kredit portfeli, muammoli kreditlar, kredit riski, NPL, kredit monitoringi, kreditga layoqatlilik, restrukturizatsiya, portfel diversifikatsiyasi, ATB "Hamkorbank".

Abstract. This article examines the causes of problem loans in the credit portfolio of commercial banks, their impact on the bank's financial stability, liquidity and profitability, and effective ways to reduce them using the example of JSCB "Hamkorbank". During the study, the issues of credit risk management, assessment of borrowers' solvency, diversification of the credit portfolio, strengthening credit monitoring, restructuring of problem debt, and use of early warning systems were analyzed. Also, scientific and practical proposals were developed on improving credit scoring, forecasting risks based on digital technologies and artificial intelligence, regular revaluation of collateral, and development of mechanisms for working with problem assets. The results of the study will serve to improve the quality of the credit portfolio of commercial banks, reduce the share of problem loans, and ensure the stability of banking activities.

Keywords: commercial bank, loan portfolio, problem loans, credit risk, NPL, credit monitoring, creditworthiness, restructuring, portfolio diversification, JSCB "Hamkorbank".

Kirish: Bugungi kunda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi, avvalo, ularning kredit portfeli sifati bilan belgilanadi. Kredit operatsiyalari banklarning asosiy daromad manbai bo'lishi bilan birga, eng yuqori darajadagi moliyaviy risklarni ham yuzaga keltiradi. Kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi natijasida muammoli kreditlar (Non-Performing Loans – NPL) ulushining ortishi banklarning likvidligi, kapital yetarliligi, foydalilik darajasi hamda iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois kredit portfelini samarali boshqarish, kredit risklarini erta aniqlash va muammoli kreditlarni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish tijorat banklari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda bank tizimini isloh qilish jarayonida kredit portfeli sifatini oshirish, xalqaro standartlar asosida risk-menejment tizimini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni kreditlash jarayoniga keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqolada ATB "Hamkorbank" misolida kredit portfelidagi muammoli kreditlarning shakllanish omillari, ularning bank faoliyatiga ta'siri hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan tijorat banklaridagi muammoli kreditlarning shakllanishi kredit ajratish jarayonidagi kamchiliklar, qarz oluvchining moliyaviy imkoniyatlarini yetarli baholamaslik va kreditdan keyingi monitoringning sustligi bilan izohlangan. Tadqiqotda muammoli kreditlarning bank likvidligi, kapital yetarliligi va rentabelligiga salbiy ta'siri ko'rsatilib, ularni kamaytirishda qarzdor bilan individual ishlash, kreditlarni iqtisodiy asosda restrukturizatsiya qilish hamda garov ta'minotini qayta baholash zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, kreditning muammoli holatga o'tishini kutmasdan, dastlabki xavf belgilarini aniqlashga asoslangan profilaktik boshqaruv tizimini shakllantirish taklif etilgan. (Yo'ldashev, 2025). O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar salmog'ini kamaytirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda potensial muammoli kreditlarni erta aniqlash, qarz oluvchining pul oqimlarini muntazam kuzatib borish va kredit portfelini tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mualliflar kredit monitoringining faqat muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgandan keyin emas, balki kredit ajratilgan kundan boshlab olib borilishi lozimligini asoslagan. Bunda bank hisobvaraqlaridagi tushumlarning kamayishi, soliq qarzdorligining paydo bo'lishi va qarz yukining ortishi erta ogohlantiruvchi indikatorlar sifatida tavsiya etilgan. (Xaitbayev va Kochkarov, 2024).

ATB "Hamkorbank" faoliyati misolida olib borilgan tadqiqotda muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholangan. Tadqiqotchi kredit portfelini segmentlar bo'yicha tahlil qilish, muddati o'tgan qarzdorlikni bosqichma-bosqich tasniflash, to'lov qobiliyati vaqtincha pasaygan mijozlarga individual restrukturizatsiya dasturlarini taklif etish va undirish jarayonlarini raqamlashtirish zarurligini ko'rsatgan. Shuningdek, kredit menejerlari faoliyatini faqat ajratilgan kredit hajmi bilan emas, kreditlarning qaytarilish sifati bilan ham baholash taklif etilgan.

(Sultonov, 2025). Rossiyalik tadqiqotchi tijorat banklarida muddati o'tgan qarzdorlikning ko'payishi kredit portfeli sifatini yomonlashtirib, bankning yangi kreditlar ajratish imkoniyatini cheklashini ta'kidlagan. Tadqiqotda muammoli kreditlar bilan ishlashning sudgacha bo'lgan, sud orqali undirish va muammoli aktivlarni sotish kabi mexanizmlari qiyosiy tahlil qilingan. Muallif qarzdorning moliyaviy holatini tiklash imkoniyati mavjud bo'lgan vaziyatlarda kreditni restrukturizatsiya qilish bank uchun garovni majburiy sotishdan ko'ra iqtisodiy jihatdan samaraliroq bo'lishi mumkinligini asoslagan. (Nikiforova, 2019).

Rossiya bank amaliyotiga oid tadqiqotlarda muammoli kreditlarni boshqarish kredit ajratish sifati, ta'minotning likvidligi va kredit portfelining konsentratsiya darajasi bilan bog'liqligi qayd etilgan. Muammoli qarzdorlikni tartibga solishda maxsus bo'linmalar tashkil etish, kreditlarni risk darajasi bo'yicha guruhlash, ehtimoliy yo'qotishlar uchun yetarli zaxiralar shakllantirish va qarzdor faoliyatini tiklash bo'yicha aniq reja ishlab chiqish zarurligi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalari muammoli kreditlar bilan ishlashda yagona standart yondashuvdan ko'ra, qarzdorning faoliyat sohasi va moliyaviy ahvoriga mos individual strategiya samaraliroq ekanini ko'rsatadi. (Ahmedova, 2025). Yevropalik tadqiqotchi tomonidan muammoli kreditlarning determinantlariga bag'ishlangan tizimli sharhda bankka xos va makroiqtisodiy omillar birgalikda o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kreditlarning tez sur'atlarda o'sishi, boshqaruv xarajatlarining yuqoriligi, kapital yetarliligining pastligi va kredit siyosatidagi kamchiliklar NPL darajasini oshiradi. Makroiqtisodiy jihatdan esa iqtisodiy o'sishning sekinlashishi, ishsizlikning ko'payishi, foiz stavkalari va valyuta kursining o'zgarishi qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini pasaytiradi. Muallif kredit risklarini baholashda bank ichki ko'rsatkichlari bilan birga tashqi iqtisodiy indikatorlardan ham foydalanishni tavsiya qilgan. (Manz, 2019).

Yevropa banklari bo'yicha o'tkazilgan empirik tadqiqotda muammoli kreditlar banklarning kreditlash faolligini sezilarli darajada cheklashi aniqlangan. NPL darajasining ortishi bank kapitalining bir qismini ehtimoliy zararlarni qoplash uchun yo'naltirishga majbur qiladi, natijada iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan yangi kreditlar hajmi kamayadi. Tadqiqotchi muammoli kreditlarni tezkor hisobdan chiqarish, ikkilamchi bozorda sotish va aktivlarni boshqaruvchi kompaniyalarga o'tkazish kreditlash faoliyatini tiklashga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslagan. (Tölö, 2021). Yevropalik olimlar muammoli kreditlarning qaytarilish darajasini prognozlashda mashinaviy o'qitish algoritmlaridan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etgan.

Xususiy qarz undirish tashkilotining ma'lumotlari asosida Cubist algoritmi, kuchaytirilgan qaror daraxtlari va tasodifiy o'rmon modellari an'anaviy regressiya usullariga nisbatan aniqroq natija ko'rsatgani aniqlangan. Mazkur yondashuv banklarga muammoli kreditlar portfelini sotish narxini belgilash, qarzni undirish xarajatlarini baholash va har bir qarzdor uchun eng samarali strategiyani tanlash imkonini beradi. (Bellotti, Brigo, Gambetti va Vrins, 2021).

Osiyolik tadqiqotchilar kafillik bilan bog'langan korxonalar kreditlarida defolt riskining bir qarz oluvchidan boshqasiga tarqalish mexanizmini tahlil qilgan. Tadqiqotda bir korxonaning moliyaviy inqirozi o'zaro kafillik tarmog'idagi boshqa korxonalar to'lov qobiliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi isbotlangan. Mualliflar risk tarqalishini oldindan baholash uchun tarmoq tahlili va vaznlangan eng yaqin qo'shnilar algoritmini qo'llagan hamda bu model an'anaviy kredit skoringiga nisbatan defoltlarni aniqlashda yuqoriroq natija berganini ko'rsatgan. (Cheng, Niu, Tu va Zhang, 2017). Osiyo banklari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda kredit monitoringi, kapital yetarliligi va iqtisodiy o'sish muammoli kreditlarga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida aniqlangan. Banklarning kredit portfeli haddan tashqari tez kengayganda, kredit sifati ustidan nazoratning zaiflashishi NPL darajasini oshirishi qayd etilgan. Aksincha, kapital yetarliligining yuqori bo'lishi, samarali monitoring siyosati va barqaror iqtisodiy o'sish kredit portfeli sifatini yaxshilashi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalari kredit hajmini oshirish bilan bir qatorda kredit sifati bo'yicha ichki limitlar va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi. (Erdas va Ezanoglu, 2022).

AQSh tijorat banklari ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tadqiqotda bank boshqaruvi va mulkchilik tuzilmasining muammoli kreditlar darajasiga ta'siri o'rganilgan. Natijalarga ko'ra, direktorlar kengashining mustaqilligi, bank boshqaruvida risklarni nazorat qilish vakolatlarining aniq taqsimlanishi va institutsional mulkdorlar nazorati kredit risklarini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bank hajmiga qarab boshqaruv mexanizmlarining NPLga ta'siri farqlanishi aniqlangan. Bu holat yirik va kichik banklar uchun kredit risklarini boshqarishning turli modellari ishlab chiqilishi lozimligini ko'rsatadi. (Grove, Patelli, Victorovich va Xu, 2021). AQSh bank tizimining uzoq muddatli ma'lumotlari asosidagi tadqiqotda bank inqirozlari va muvaffaqiyatsizliklarining asosiy sababi aktivlar sifati yomonlashishi, zararlarining ortishi, kapitalning kamayishi va qimmat moliyalashtirish manbalariga qaramlikning kuchayishi ekanligi aniqlangan. Mualliflar bank muvaffaqiyatsizligini moliyaviy hisobotlardagi oddiy ko'rsatkichlar orqali oldindan prognoz qilish mumkinligini ko'rsatgan. Ushbu xulosa muammoli kreditlar, kredit zararlar uchun zaxiralar, kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlarini yagona erta ogohlantirish tizimida birlashtirish zarurligini asoslaydi. (Correia, Luck va Verner, 2025). Oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlar muammoli kreditlarni kamaytirish faqat muddati o'tgan qarzlarni undirish bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Samarali tizim qarz oluvchini sifatli baholash, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, erta ogohlantirish indikatorlarini qo'llash, kredit monitoringini avtomatlashtirish, iqtisodiy asoslangan restrukturizatsiya va korporativ boshqaruvni kuchaytirishni o'z ichiga olishi kerak. ATB "Hamkorbank" amaliyotida ham ushbu yondashuvlarni kompleks joriy etish kredit portfeli sifatini oshirish va NPL darajasining barqaror past bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining kredit portfelidagi muammoli kreditlarni kamaytirish mexanizmlarini baholashda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili, guruhlash va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida ATB "Hamkorbank"ning kredit portfeli tanlanib, bankning 2019–2025-yillardagi kredit portfeli hajmi, muammoli kreditlar (NPL) ulushi, kredit riski darajasi va kreditlash faoliyati ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari, ATB "Hamkorbank"ning moliyaviy hisobotlari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS 9), Bazel qo'mitasi tavsiyalari hamda kredit risklarini boshqarishga oid ilmiy manbalar tadqiqotning axborot bazasini tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida kredit portfeli sifatiga ta'sir etuvchi omillar kompleks ravishda baholanib, muammoli kreditlarning shakllanishiga sabab bo'luvchi ichki va tashqi omillar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Kreditga layoqatlilikni baholash, kredit monitoringi, portfel diversifikatsiyasi, kreditlarni restrukturizatsiya qilish hamda erta ogohlantirish (Early Warning System) tizimlarining samaradorligi ilmiy va amaliy jihatdan o'rganildi. Olingan natijalar asosida ATB "Hamkorbank" kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi hamda ularning bankning moliyaviy barqarorligi va kredit portfeli sifatini oshirishdagi iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar. Tijorat banklarining kredit portfeli bank aktivlarining daromad keltiruvchi asosiy qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, kreditlar hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholash, kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va muammoli qarzдорlikni erta aniqlash tizimlariga qo'yiladigan talablarni kuchaytiradi. Kredit portfeli hajmining kengayishi bankning bozordagi faolligi va moliyaviy vositachilik imkoniyatlari oshganini ko'rsatsa-da, portfel sifati kreditlarning miqdoriy o'sishidan kam bo'lmagan ahamiyatga ega. Shu sababli ATB "Hamkorbank" faoliyatini baholashda kredit portfeli hajmi bilan bir qatorda muammoli kreditlar miqdori va NPL koeffitsiyentining o'zgarishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

ATB "Hamkorbank" faoliyati asosan jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikro, kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlashga yo'naltirilgan. Bank hisobotida ham kreditlash faoliyatining asosiy qismi jismoniy shaxslar, kichik va o'rta biznes hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasiga to'g'ri kelishi qayd etilgan. Mazkur mijozlar segmentining kengligi kredit portfelini diversifikatsiya qilish imkonini bersa-da, ko'p sonli qarz oluvchilar faoliyatini uzluksiz monitoring qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

1-jadval

ATB "Hamkorbank" kredit portfeli va muammoli kreditlari dinamikasi, 2019–2025-yillar

Yillar	Kredit portfeli, mlrd so'm	Kredit portfelining yillik o'sishi, %	Muammoli kreditlar, mlrd so'm	NPL darajasi, %	NPLning yillik o'zgarishi, foiz band
2019	6 032,4	–	–	–	–
2020	7 249,0	20,2	252,0	3,5	–
2021	9 334,0	28,8	105,0	1,1	–2,4
2022	11 423,0	22,4	67,0	0,6	–0,5
2023	15 854,0	38,8	99,0	0,6	0,0
2024	19 178,0	21,0	319,0	1,7	+1,1
2025	23 965,0	25,0	192,0	0,8	–0,9

Manba: ATB "Hamkorbank" moliyaviy hisobotlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklar kesimidagi NPL statistikasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari ATB "Hamkorbank" kredit portfeli 2019-yildagi 6 032,4 mlrd so'mdan 2025-yil yakunida 23 965 mlrd so'mga yetganini ko'rsatadi. Demak, yetti yillik davr mobaynida kredit portfeli qariyb to'rt baravarga yoki 17 932,6 mlrd so'mga ko'paygan. Bankning 2020-yil moliyaviy hisobotida mijozlarga berilgan kreditlar hajmi 2019-yilda 6 032,4 mlrd so'm, 2020-yilda esa 7 273,9 mlrd so'm atrofida qayd etilgan. Markaziy bank statistikasi va bank moliyaviy hisobotlari o'rtasida kreditlarning tasnifi, moliyaviy ijara, hisoblangan foizlar va ehtimoliy kredit zararlari hisobga olinishi sababli ayrim tafovutlar mavjud bo'lishi mumkin. 2020-yil yakunida Hamkorbank kredit portfeli 7 249 mlrd so'mni, muammoli kreditlar 252 mlrd so'mni va NPL ko'rsatkichi 3,5 foizni tashkil etgan. Ushbu davr COVID-19 pandemiyasi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlari qisqarishi, savdo va xizmatlar sohasidagi faoliyatning

vaqtincha cheklanishi hamda ayrim qarz oluvchilarning kredit to'lovlarini amalga oshirish imkoniyati pasayishi bilan tavsiflanadi. Natijada bank kredit portfelidagi muammoli kreditlar ulushi nisbatan yuqori darajada shakllangan. 2020-yil yakunidagi 3,5 foizlik NPL darajasi bank kredit portfelining har 100 so'miga o'rtacha 3,5 so'mlik muammoli kredit to'g'ri kelganini anglatadi.

2021-yilda kredit portfeli 9 334 mlrd so'mga yetib, 2020-yilga nisbatan 28,8 foizga oshgan. Shu bilan bir vaqtda muammoli kreditlar hajmi 252 mlrd so'mdan 105 mlrd so'mga, NPL darajasi esa 3,5 foizdan 1,1 foizga pasaygan. Kredit portfeli o'sib borayotgan sharoitda NPL ko'rsatkichining 2,4 foiz bandga kamayishi bank tomonidan muammoli qarzдорliklarni undirish, kreditlarni restrukturizatsiya qilish, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini qayta baholash va kredit portfelini sog'lomlashtirish choralari amalga oshirilganini ko'rsatadi. 2022-yil 1-yanvar holatiga bankning kreditlari 9 334 mlrd so'm, muammoli kreditlari 105 mlrd so'm va NPL ulushi 1,1 foiz bo'lgan. 2022-yil davomida Hamkorbank kredit portfeli 11 423 mlrd so'mga yetgan. Bu 2021-yilga nisbatan 22,4 foizlik o'sishni anglatadi. Shu davrda muammoli kreditlar hajmi 67 mlrd so'mgacha kamaygan va NPL koeffitsiyenti 0,6 foizni tashkil etgan. Kredit portfelining o'sishi bilan bir vaqtda muammoli kreditlarning mutlaq miqdori ham pasaygani bank kredit risklarini boshqarish tizimining samaradorligi oshganini ko'rsatadi. 2022-yil yakunida Hamkorbankning NPL darajasi mamlakat bank tizimi o'rtacha ko'rsatkichidan sezilarli darajada past bo'lgan.

2023-yilda kredit portfelining eng yuqori yillik o'sish sur'ati kuzatilgan. Bank kreditlari 11 423 mlrd so'mdan 15 854 mlrd so'mga ko'payib, o'sish 38,8 foizni tashkil etgan. Kredit portfelining jadal kengayishiga qaramay, NPL ko'rsatkichi 0,6 foiz darajasida saqlanib qolgan.

Muammoli kreditlarning mutlaq miqdori 67 mlrd so'mdan 99 mlrd so'mga oshgan bo'lsa-da, ularning kredit portfelidagi ulushi o'zgarmagan. Bu holat muammoli kreditlarning o'sish sur'ati umumiy kredit portfeli o'sish sur'atidan past bo'lganini anglatadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga bank kredit portfeli 15 854 mlrd so'm, NPL hajmi 99 mlrd so'm va NPL darajasi 0,6 foizni tashkil qilgan. 2024-yilda bankning kredit portfeli 19 178 mlrd so'mga yetib, 2023-yilga nisbatan 21 foizga o'sgan. Biroq muammoli kreditlar miqdori 99 mlrd so'mdan 319 mlrd so'mga, ya'ni 3,2 baravarga oshgan. Natijada NPL darajasi 0,6 foizdan 1,7 foizga ko'tarilgan. Mazkur holat kredit portfelining miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda kredit sifatidagi ayrim salbiy tendensiyalar yuzaga kelganini ko'rsatadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston bank tizimida NPL darajasi 4 foiz bo'lgan bir sharoitda Hamkorbankda ushbu ko'rsatkich 1,7 foizni tashkil etgan. Demak, bankda muammoli kreditlar oshgan bo'lsa-da, ularning ulushi bank tizimi o'rtacha darajasidan 2,3 foiz bandga past bo'lib qolgan.

2024-yildagi NPL o'sishini bank kredit portfelining tarkibiy o'zgarishlari bilan izohlash mumkin. Bankning 2024-yilgi moliyaviy hisobotida kreditlash faoliyati jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, savdo va xizmatlar, ishlab chiqarish, transport, qurilish hamda qishloq xo'jaligi segmentlarini qamrab olgani ko'rsatilgan. Kredit portfelining jadal o'sishi yangi ajratilgan kreditlarning ma'lum qismi bo'yicha to'lov intizomi va qarz oluvchilarning real pul oqimlarini chuqur monitoring qilishni talab etgan. 2025-yil yakunida esa kredit portfeli 23 965 mlrd so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan yana 25 foizga oshgan.

Shu bilan birga, muammoli kreditlar hajmi 319 mlrd soʻmdan 192 mlrd soʻmga yoki 39,8 foizga kamaygan. NPL darajasi 1,7 foizdan 0,8 foizgacha pasaygan. Kredit portfeli 4 787 mlrd soʻmga oshgan sharoitda muammoli qarzдорlikning 127 mlrd soʻmga qisqarishi bankning kredit portfelini sogʻlomashtirish va muammoli kreditlarni boshqarish borasidagi choralari natijadorligini koʻrsatadi. 2026-yil 1-yanvar holatiga butun bank tizimida NPL darajasi 3 foizni, Hamkorbankda esa 0,8 foizni tashkil qilgan.

ATB “Hamkorbank” kredit portfelining sifatini toʻliq baholash uchun uning NPL darajasini bank tizimi oʻrtacha koʻrsatkichi bilan qiyoslash muhim. Bunday qiyoslash bankning kredit risklarini boshqarish natijalari umumiy iqtisodiy va bank tizimidagi tendensiyalarga nisbatan qanday shakllanganini aniqlash imkonini beradi.

2-jadval

ATB “Hamkorbank” va Oʻzbekiston bank tizimida NPL koʻrsatkichlarining qiyosiy tahlili

Yillar	Hamkorbank NPL darajasi, %	Bank tizimi NPL darajasi, %	Hamkorbank va tizim oʻrtasidagi farq, foiz band	Hamkorbankdagi muammoli kreditlar, mlrd soʻm	Bank kredit portfelining tizimdagi ulushi, %
2020	3,5	2,1	+1,4	252	2,6
2021	1,1	5,2	-4,1	105	2,9
2022	0,6	3,6	-3,0	67	2,9
2023	0,6	3,5	-2,9	99	3,4
2024	1,7	4,0	-2,3	319	3,6
2025	0,8	3,0	-2,2	192	4,0

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021–2026-yillar 1-yanvar holatidagi banklar kesimidagi NPL statistikasi asosida muallif hisob-kitoblari.

Qiyosiy tahlil natijalari 2020-yil yakunida Hamkorbankning NPL darajasi bank tizimi koʻrsatkichidan 1,4 foiz bandga yuqori boʻlganini koʻrsatadi. Bu holat pandemiya sharoitida bankning kichik biznes, savdo, xizmat koʻrsatish va jismoniy shaxslar segmentlariga yuqori darajada yoʻnaltirilgani bilan bogʻliq boʻlishi mumkin. Mazkur toifadagi mijozlarning daromadlari iqtisodiy cheklovlarga nisbatan sezgir boʻlib, qisqa muddatli pul oqimi muammolari kredit toʻlovlarining kechikishiga olib kelgan. 2021-yildan boshlab vaziyat keskin oʻzgargan.

Hamkorbankning NPL koʻrsatkichi 1,1 foizga tushgan bir paytda bank tizimi boʻyicha muammoli kreditlar ulushi 5,2 foizga koʻtarilgan. Natijada Hamkorbank va bank tizimi oʻrtasidagi ijobiy farq 4,1 foiz bandni tashkil etgan. Bu oʻrganilgan davrdagi eng katta ijobiy tafovut hisoblanadi. Bank tizimida muammoli kreditlar 16 974 mlrd soʻmga yetgan boʻlsa, Hamkorbankdagi NPL miqdori 105 mlrd soʻmni tashkil qilgan.

2022–2023-yillarda Hamkorbankning NPL darajasi 0,6 foiz miqdorida saqlanib qolgan. Bank tizimida esa mazkur koʻrsatkich mos ravishda 3,6 va 3,5 foizni tashkil etgan.

Natijada Hamkorbankning NPL ko'rsatkichi bank tizimiga nisbatan 3,0 va 2,9 foiz bandga past bo'lgan. Ushbu natijalar kredit portfelining tez o'sishi bankda muammoli kreditlar ulushining avtomatik ravishda oshishiga olib kelmaganini ko'rsatadi. Aksincha, kreditlash hajmi kengaygan sharoitda portfel sifati barqaror saqlangan. 2024-yilda Hamkorbankning NPL ko'rsatkichi 1,7 foizga oshgan bo'lsa-da, bank tizimi bo'yicha 4 foizlik o'rtacha ko'rsatkichdan ancha past bo'lgan. Hamkorbank kredit portfelining bank tizimidagi ulushi 3,6 foizni tashkil etgani holda, uning muammoli kreditlarining bank tizimi jami NPL hajmidagi ulushi taxminan 1,5 foizga teng bo'lgan. Bu bankning kredit bozoridagi ulushiga nisbatan muammoli kreditlardagi hissasi ancha past ekanini anglatadi.

2025-yilda bank kredit portfelining bank tizimidagi ulushi 4 foizga yetgan. Shu bilan bir vaqtda bankning NPL darajasi 0,8 foizga tushgan. Bank tizimi bo'yicha mazkur ko'rsatkich 3 foizni tashkil etgan. Demak, Hamkorbank kredit bozoridagi ulushini oshirgan bo'lsa-da, kredit portfelining sifat ko'rsatkichlarini bank tizimi o'rtacha darajasidan ancha yaxshi holatda saqlab qolgan. Tahlillar 2019–2025-yillarda Hamkorbank kredit portfeli o'rtacha yuqori sur'atlarda rivojlanganini ko'rsatadi. 2019–2025-yillarda portfel hajmining o'rtacha yillik qo'shma o'sish sur'ati taxminan 25,8 foizni tashkil etgan. Bu bankning kreditlash bozorida faol ekspansiya olib borganini anglatadi. Biroq kredit portfeli o'sishining barqarorligi faqat kreditlar miqdori bilan emas, balki qarz oluvchilarning to'lov qobiliyati, kreditlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi va ehtimoliy yo'qotishlar uchun shakllantirilgan zaxiralar yetarliligi bilan belgilanadi.

Hamkorbank kredit portfelining o'sishi bir tomondan foizli daromadlar bazasini kengaytirsa, ikkinchi tomondan kredit risklari hajmini oshiradi. Ayniqsa, kredit portfeli yiliga 20–39 foiz oraliqda o'sayotgan sharoitda yangi kreditlarning sifatini baholash muhim. Kredit ajratilgan dastlabki davrda mijoz to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishi mumkin, biroq biznes loyiha haqiqiy samaradorligi va qarz oluvchining moliyaviy barqarorligi keyingi yillarda namoyon bo'ladi. Shu sababli kredit portfelining joriy NPL darajasi bilan cheklanib qolmasdan, kreditlarning IFRS 9 bo'yicha birinchi, ikkinchi va uchinchi bosqichlarga taqsimlanishini ham kuzatish zarur. Kreditlarning ikkinchi bosqichga o'tishi kredit riski dastlabki tan olinishidan keyin sezilarli darajada oshganini anglatadi. Bunday kreditlar hali to'liq muammoli hisoblanmasa-da, kelajakda NPLga aylanish xavfi yuqori bo'ladi. Shu bois bank kredit portfelida faqat uchinchi bosqich kreditlarini kamaytirishga emas, ikkinchi bosqich kreditlari bo'yicha profilaktik monitoringni kuchaytirishga e'tibor qaratishi lozim. Qarzdorning hisobvaraqlaridagi tushumlar qisqarishi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kechikishlar, debitorlik qarzdorligining ortishi, kredit aylanmasining pasayishi va boshqa banklardagi majburiyatlarning ko'payishi erta ogohlantiruvchi indikator sifatida ishlatilishi mumkin.

2024-yilda NPL darajasining 0,6 foizdan 1,7 foizga oshishi portfelning ayrim segmentlarida risklarning to'planganini ko'rsatgan. Bunda muammoli kreditlarning mutlaq hajmi portfel o'sishidan ancha yuqori sur'atda ko'paygan. Shuning uchun bank kredit risklarini boshqarishda faqat umumiy NPL ko'rsatkichidan foydalanmasdan, kredit mahsuloti, qarz oluvchi turi, iqtisodiy tarmoq, hudud, kredit valyutasi va ta'minot turi bo'yicha segmentlangan tahlilni amalga oshirishi kerak.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan iste'mol va mikroqarzarlar bo'yicha risklarni kamaytirishda qarz yuki ko'rsatkichi, rasmiy va norasmiy daromadlar barqarorligi, boshqa kredit tashkilotlaridagi majburiyatlar va mijozning to'lov xatti-harakatlarini baholash muhim. Bitta mijozning turli banklar va mikromoliya tashkilotlaridan bir vaqtning o'zida kredit olishi uning jami qarz yukini oshiradi. Shu sababli kredit byurosi ma'lumotlarini bank hisobvaraqlari aylanmasi va daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan integratsiyalash zarur.

Kichik va o'rta biznes kreditlari bo'yicha qarz oluvchining garov qiymatidan ko'ra biznes faoliyatidan hosil bo'ladigan real pul oqimiga ustuvor ahamiyat berilishi lozim. Garov kredit riskini kamaytiruvchi ikkilamchi manba bo'lib, kreditni qaytarishning asosiy manbasi qarz oluvchining operatsion daromadlari hisoblanadi. Shu bois biznes kreditlarini ajratishda loyiha rentabelligi, sotuv hajmi, ishlab chiqarish quvvati, xaridorlar tarkibi va mavsumiylik omillari bo'yicha stress-testlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Yirik korporativ qarz oluvchilar bo'yicha esa konsentratsiya riski alohida nazorat qilinishi kerak. Bitta yirik qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi bank kredit portfelidagi NPL hajmini qisqa muddatda keskin oshirishi mumkin. Shu sababli yirik kreditlar bo'yicha ichki limitlarni belgilash, o'zaro bog'liq qarz oluvchilarni aniqlash, loyiha pul oqimlarini mustaqil ekspertizadan o'tkazish va sindikatlashgan kreditlash mexanizmlaridan foydalanish muhim.

Tahlil natijalari Hamkorbankda muammoli kreditlarni kamaytirishning eng samarali yo'nalishi kredit ajratilgandan keyingi kechikkan undirish choralaridan ko'ra kredit risklarini oldindan aniqlash ekanini ko'rsatadi. Kredit kechiktirilgan to'lov holatiga o'tmasdan oldin mijoz faoliyatidagi salbiy o'zgarishlarni aniqlash bankka restrukturizatsiya, qo'shimcha ta'minot talab qilish, kredit limitini kamaytirish yoki to'lov jadvalini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Umuman olganda, 2019–2025-yillarda ATB “Hamkorbank” kredit portfelining qariyb to'rt baravarga oshgani bankning kreditlash salohiyati va mijozlar bazasi kengayganini ko'rsatadi. 2020-yilda 3,5 foizni tashkil etgan NPL darajasining 2025-yil yakunida 0,8 foizgacha kamayishi kredit portfeli sifatida sezilarli ijobiy natija hisoblanadi. Shu bilan birga, 2024-yilda muammoli kreditlar hajmining keskin oshishi kredit portfeli jadal o'sayotgan sharoitda risklarni boshqarish tizimi doimiy ravishda takomillashtirib borilishi zarurligini tasdiqlaydi. Bankda avtomatlashtirilgan kredit skoringi, erta ogohlantirish tizimi, segmentlashtirilgan monitoring, qarz oluvchilarning pul oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish va muammoli qarzdorlikni individual boshqarish mexanizmlarining rivojlantirilishi kelgusida NPL ko'rsatkichini barqaror past darajada saqlashga xizmat qiladi.

Muhokama: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ATB “Hamkorbank” kredit portfeli 2019–2025-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lib, bu bankning kreditlash faoliyati va moliyaviy vositachilik salohiyati izchil kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

Biroq kredit portfeli hajmining ortishi bilan bir qatorda kredit risklarini samarali boshqarish zarurati ham kuchayadi. O'tkazilgan tahlillar bankning muammoli kreditlar darajasi mamlakat bank tizimining o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligini ko'rsatgan bo'lsa-da, 2024-yilda NPL ko'rsatkichining vaqtinchalik oshishi kreditlash jarayonida risklarni baholash va

monitoring qilish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Demak, kredit portfelining sifati uning hajmidan ko'ra muhimroq ko'rsatkich hisoblanadi.

Tahlil davomida aniqlanishicha, muammoli kreditlarning shakllanishiga asosan qarz oluvchilarning moliyaviy ahvolidagi salbiy o'zgarishlar, kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanish, kredit monitoringining yetarli darajada tashkil etilmagani hamda ayrim iqtisodiy tarmoqlarda yuzaga keladigan makroiqtisodiy xavflar sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, kichik biznes va jismoniy shaxslarni kreditlash segmentida daromadlar barqarorligini to'g'ri baholash hamda qarz oluvchilarning umumiy qarz yukini aniqlash muammoli kreditlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kredit ajratish jarayonida zamonaviy kredit skoringi va kompleks moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish zarur. Shuningdek, tadqiqot natijalari kredit portfelini boshqarishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish muammoli kreditlarni kamaytirishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Kredit oluvchilarning moliyaviy xatti-harakatlarini real vaqt rejimida kuzatish, erta ogohlantirish (Early Warning System) indikatorlarini avtomatik shakllantirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish hamda mashinaviy o'qitish algoritmlari asosida kredit risklarini prognozlash bankka ehtimoliy muammolarni kredit muddati buzilishidan oldin aniqlash imkonini beradi. Natijada bank muammoli kreditlarni undirish bilan emas, balki ularning yuzaga kelishini oldini olish orqali kredit portfelini sifati saqlab qolishi mumkin.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, kredit portfelining barqarorligi faqat kredit ajratish sifati bilan emas, balki kreditdan keyingi monitoringning samaradorligi bilan ham chambarchas bog'liq.

Kredit ajratilgandan so'ng qarz oluvchilarning moliyaviy faoliyati, pul oqimlari, soliq to'lovlari, garov ta'minoti qiymati va boshqa risk indikatorlarini muntazam monitoring qilish muammoli kreditlar ulushini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan mijozlarga iqtisodiy jihatdan asoslangan restrukturizatsiya choralari qo'llash bankning kredit yo'qotishlarini kamaytirish va mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlikni saqlab qolish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari ATB "Hamkorbank" misolida kredit portfelidagi muammoli kreditlarni kamaytirish kompleks yondashuvni talab qilishini tasdiqladi. Kreditga layoqatlilikni baholash tizimini takomillashtirish, kredit portfelini iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha diversifikatsiya qilish, kredit monitoringini raqamlashtirish, sun'iy intellekt asosidagi risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish, kredit konsentratsiyasini cheklash hamda muammoli aktivlar bilan ishlovchi maxsus bo'linmalar faoliyatini kuchaytirish bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi nafaqat ATB "Hamkorbank", balki respublikaning boshqa tijorat banklarida ham kredit portfelini sifati yaxshilash va bank tizimining umumiy barqarorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ATB "Hamkorbank" kredit portfelidagi muammoli kreditlarni kamaytirish bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va daromadlilikini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. 2019–2025-yillardagi tahlillar bank kredit portfelini hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, NPL ko'rsatkichlarini nisbatan past darajada saqlashga erishilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ayrim davrlarda muammoli kreditlar ulushining oshishi

kreditga layoqatlilikni baholash, qarz oluvchilarning pul oqimlarini monitoring qilish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va kredit risklarini erta aniqlash tizimlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bankda zamonaviy skoring modellari, sun'iy intellekt asosidagi tahlil, Early Warning System, garovlarni muntazam qayta baholash, iqtisodiy jihatdan asoslangan restrukturizatsiya hamda muammoli aktivlar bilan ishlash mexanizmlarini kuchaytirish kredit yo'qotishlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi ATB "Hamkorbank" kredit portfeli sifatini yaxshilash, muammoli kreditlar ulushini barqaror past darajada saqlash va bankning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Murodov, F. (2025) 'Tijorat banklarining kredit portfelidagi muammoli kreditlarni kamaytirish yo'llari', Bank-moliya akademiyasi jurnali.
2. Jo'rayeva, N.F. (2025) 'Improving financial stability through quality enhancement of bank loan portfolios in Uzbekistan', International Journal of Global Economic Light.
3. Muhamedov, M.X. (2025) 'Совершенствование системы управления рисками в коммерческих банках Узбекистана', Экономика и финансы.
4. Nikiforova, V.D., Kovalenko, A.V. and Nikiforov, A.A. (2019) 'Теоретические и практические аспекты работы коммерческих банков с проблемными кредитами', Финансы и кредит.
5. Pashkovskaya, I.V. (2022) 'Формы и методы участия государства в секьюритизации проблемных кредитов коммерческих банков', Финансовые рынки и банки.
6. Krinichanskiy, K.V. and Fatkin, A.V. (2019) 'Анализ влияния доступности кредита на динамику малого и среднего предпринимательства в России', Экономический анализ: теория и практика.
7. Ekinici, R. and Poyraz, G. (2019) 'The effect of credit risk on financial performance of deposit banks in Turkey', Procedia Computer Science, 158, pp. 979–987. doi: 10.1016/j.procs.2019.09.139.
8. Anita, S.S., Tasnova, N. and Nawar, N. (2022) 'Are non-performing loans sensitive to macroeconomic determinants? An empirical evidence from the banking sector of SAARC countries', Future Business Journal, 8(1), article 7, pp. 1–16. doi: 10.1186/s43093-022-00117-9.
9. Phung, Q.T., Vu, H.V. and Tran, H.P. (2022) 'Do non-performing loans impact bank efficiency?', Finance Research Letters, 46, article 102393. doi: 10.1016/j.frl.2021.102393.
10. Atichasari, A.S., Ratnasari, R.T., Kulsum, U., Kahpi, H.S. and Wulandari, S.S. (2023) 'Examining non-performing loans on corporate financial sustainability: Evidence from banking institutions', Sustainable Futures, 6, article 100137. doi: 10.1016/j.sftr.2023.100137.

11. Pancotto, L., ap Gwilym, O. and Williams, J. (2024) 'The evolution and determinants of the non-performing loan burden in Italian banking', Pacific-Basin Finance Journal, 84, article 102306. doi: 10.1016/j.pacfin.2024.102306.
12. Partovi, E. and Matousek, R. (2019) 'Bank efficiency and non-performing loans: Evidence from Turkey', Research in International Business and Finance, 48, pp. 287–309.
13. <https://hamkorbank.uz/>
14. <https://cbu.uz/>